

**Baxtiyor Ashurov**

(Toshkent, O'zbekiston)  
navouzbek@mail.ru

## Najmiddin Kavkabiyning ilmiy merosi

### Abstrakt

Darvish Ali Changiy Mavlono Najmiddin Kavkabiy Buxoriyni “yorqin va nurafshon fazilatlarini butun olamga nur sochuvchi oftob kabi ma’lum, juda baland makon va martabasi barchaga mashhur, mukammal ne’matlarga to’la fazilatli dasturxonidan hamma bahramand, ash’orlari bitilgan devoni sahifalariga yozuvchi qalamlari natijasi ko’pchilikni ojiz qoldirgan. Har xil fanlarga oid turli risolalari yuzaga chiqqan zot” sifatida tasvirlaydi. Xususan, uning musiqa ilmida yozgan va ijod qilgan asarlari zavq-u shavq ahlining mehru muhabbatiga sazovor bo’lib, ularning diljoniga nay shakardan ham shirinroq tuyuladi. Xullas, go’zal sifatlarining qaysi birini maqtashga barcha hayron. Janob Mavlono *qavl, amal, kor, rehta, saj’, zarbul fath, chahorzarb, savt va naqshdan* iborat juda ko’p asarlar bastalagan. Abdurauf Fitrat ta’kidlaganidek: “Temur zamonida Marog’ali Xo’ja Abdulqodir qanday esa, o’zbeklar zamonida Kavkabiy shundaydir”, deb Kavkabiyning o’zbek xonliklari madaniy hayotidagi o’rnini Abdulqodir Marog’iyning temuriylar zamonidagi ahamiyatiga tenglaydi.

**Kalit so’zlar:** musiqa, ilm, madaniyat, fan, olim, sozanda, san’at, musiqashunos, kuy, cholg’u.

**Muallif haqida:** *Ashurov Baxtiyor Shokirovich* – mustaqil izlanuvchi (PhD), ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo’limi boshlig’i, O’zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a’zosi, O’zbekiston davlat konservatoriyasi.

**Iqtibos uchun:** Ashurov, B. Sh. 2019. “Najmiddin Kavkabiyning ilmiy merosi”. *O’zbekiston: til va madaniyat* 3: 97—110.

### Kirish

Shayboniylar davlatining poytaxtiga aylangan Buxoro shahriga zamonasining ko’zga ko’ringan ilm-u ma’rifat, adabiyot va san’at ahli intila boshladi. Natijada yangi tarixiy sharoitda she’riyat, musiqa va tasviriy san’atning “Buxoro maktabi” deb nom olgan o’ziga xos yo’nalishi taraqqiy topdi. Buxoro ilm va san’at ahli orasida Hirot

adabiy-madaniy muhitining oltin davri ta'siri ostida shakllangan yirik olim va sozanda Najmiddin Kavkabiy (1473-1533) ham bor edi.

Najmiddin Kavkabiy, bizga ma'lum ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroda Mavlono Gavhariy oilasida, taxminan 1473-yilda tavallud topgan. Olim F.To'rayev esa uni 1480-yilda tavallud topganini aytib o'tadi [Týpaев 2008, 14-17]. Manbalarga ko'ra u Buxoroda ulg'ayib, o'sha davrdagi madaniyat markazi bo'lmish Hirot shahrining madrasalaridan birida tahsil olgan va turli fanlar sohasida, jumladan, musiqa nazariyasi, ritm va aruz qoidalaridan bahs etuvchi ilmiy risolalar yozgan [Ражабов 2006, 35].

### **Kavkabiy hayoti va ijodi haqidagi manbalar**

Kavkabiy yoshligida astronomiya bilan shug'ullangan. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" da uni munajjim bo'lganini tilga oladi va shoir sifatidagi bitta baytini keltiradi. Navoiyning ta'kidlashicha, Kavkabiy (yulduzli) taxallusini ham astronomiya bilan shug'ullangani uchun orttirgan. Alisher Navoiy Kavkabiyni ko'rgani va uchrasgani haqida ma'lumot bermaydi. Hazratning yaqin do'stlari uning Kavkabiy bilan uchrashganini aytishgan ekan. Shu o'rinda "Majolis un-nafois" dagi fikrlarga e'tibor qaratamiz:

"Mavlono Kavkabiy – munajjim yigitdur va o'z fanig'a munosib taxallus ixtiyor qilibdur. Faqir andoq xayol qilurmenkim, oni ko'rmaymen. Ba'zi yoronlar derlarkim, ko'rubsen, xotirg'a kelmadi. Bu matla' aningdurkim:

*Be ruxash har qatrai xun bar sari mujgon maro,  
Mash'ale boshad furo'zon dar shabi hijron maro"* [Navoiy 1966, 111].

Alisher Navoiy uni eslay olmaganligiga sabab "Majolis un-nafois" yozilgan paytlarda Kavkabiy hali talaba bo'lib, xoslarning nufuzli majlislarida ishtirok etmagan. Bu paytda Kavkabiy asosiy mashg'uloti bo'lgan ilmi nujumga qiziqib, ba'zi-ba'zida ash'orlar bitib yurgan vaqtlari bo'lsa kerak. Keyinchalik Hirot musiqa davralaridan ham bahramand bo'lgan Kavkabiy musiqashunoslik sohasida kamolotga yetadi.

Matndagi e'tiborni tortadigan jihat shundaki, Alisher Navoiy Kavkabiyni tazkiraning uchinchi majlisi yozilayotgan paytda, ya'ni, qaynoq ijod bilan shug'ullanayotgan va buyuk alloma ta'biri bilan aytganda, "ba'zining mulozamatig'a musharraf va sarbaland va ba'zining musohabatidin xushnud va bahramand" bo'lgan ijodkorlar majlisiga kiritadi. Ya'ni, Abdurahmon Jomiy, Amir Shayxim Suhayliy, Mavlono Binoiy kabi ulug'lar panohidagi ijodkorlar qatorida zikr qilgan. Demak, Alisher Navoiy yosh talaba bo'lmish Kavkabiy bilan bevosita uchrashib, uning yorqin iste'dodidan xushnud bo'lgan

deyishimiz ham mumkin. Kavkabiylar keyinchalik Ubaydulloxon (1511-1540) saroyida xizmat qilgan.

Hasanxo'ja Nisoriy Kavkabiyning "Kulliyot"idan olingan o'n ikki maqom va olti ovoz ta'rifi to'rt baytda ifodalangan mashhur g'azalini o'qigandan so'ng, uni mahoratli shoir sifatida eslab, bir g'azalining maqtasini namuna qilib ko'rsatadi:

*Chun Kavkabiylar hayron, shodam bo'g'ami xubon,  
Ishq ast maro pesha, har kas xunare dorad.*

Mazmuni:

*Kavkabiylar yor g'amidin ersa shodman,  
Ishq aro har kimda bir hunar boridin hayron.*

Demak, Kavkabiylar mohir shoir sifatida lirik g'azallar ijod qilgan va devon tuzgani aniq. Biroq bu manbalar hali fanga ma'lum emas. Uning devon tuzganini Darvish Ali Changiylar ham aytib o'tgan [Чангий, 71].

Ubaydulloxon saroyining ko'rki bo'lgan Najmiddin Kavkabiylar haqida Hasanxo'ja Nisoriyning (1516-1597) "Muzakkir ul-ahbob" ("Do'stlar yodnomasi") asarida quyidagicha zikr qilinadi: *"Va mullo Kavkabiylar musiqa sohasida Ubaydulloxon nomiga bir risola tasnif etib, unda ta'lif va iyqo' haqida so'z yuritgan, hajm jinslar bahsini ham keltirib... O'n ikki maqomni olti ovozda nazm qilib manzumaga kulliyot bog'lagankim, musanniflar bir ovozdan bu dilkash amalga tahsinlar aytib kelmoqdalar va bu savt beg'asht dillarda o'zining latofati tufayli toshga o'yilgan naqshday saqlanib qoladi... Hiriylardan Buxoroga qaytayotganida yo'lda shahodat sharbatini tatigan* [Нисорий 1993, 140-141].

Aytish joizki, Kavkabiylar nafaqat tavalludi balki, o'limi bilan bog'liq ma'lumotlarda ham noaniqliklar ko'zga tashlanadi. Xususan, Is'hoq Rajabovning "Maqomlar" kitobida Mavlono Najmiddin Kavkabiylar Buxoriy 1576-yilda jazolanib, o'ldirilgani haqida aytiladi [Ражабов 2006, 35]. Ubaydulloxonning hukmronlik davri 1511-1540-yillarni o'z ichiga oladi. Darvish Ali Changiylar xabar berishicha, Kavkabiylar aynan Ubaydulloxonning ruxsati bilan muborak Haj safariga o'tlanadi va qaytishda Eron shohi Taxmasp tomonidan vahshiylarcha o'ldiriladi.

Najmiddin Kavkabiylar davrining ko'zga ko'ringan musiqa-shunoslaridan biri Mavlono Surudiy (XVI asr) edi. Uni Hofiz Surudiy deb ham ataganlar. U ko'proq Abdullaxon saroyida xizmat qilgan. Hirotda o'qigan. Kavkabiylar u bilan qariyb tengdosh bo'lgan.

O'sha davrning yana bir sozanda va bastakori Bobo Sho'xiiy Mutribiylar. U musiqa ilmida shuhrat qozongan edi. Uning Savti Sho'xiiy, Naqshi Bobo, Peshravi Sho'xiiy kabi bastalagan kuylari san'atkorlar orasida mashhur bo'lgan [Нисорий 1993, 12]. Bobo

Sho'xiy ruboiynavis ham bo'lib, bir ruboiysida o'zi bilan birga hamnafas bo'lgan do'stlari nomini zikr qilgan:

*Ey do'st, Abu Turob damsozi man ast,  
Haydar ba shukuftagi hamovozi man ast.  
In xardu jigar go'sha du boland maro,  
Bolam mashikan, ki vaqti parvozi man ast.*

Tarjimasi:

*Ey do'st, Abu Turob sherigim mening,  
Haydar esa yetilgan hamnafasim mening.  
Bu ikki jigar go'sha mening qanotlarim,  
Qanotimni sindirma, ular baland parvozim mening.*

Bu ruboiydagi parvoz ijro jarayonidir. Demak, Bobo Sho'xiy ruboiyda tilga olingan ikki qo'shqanoti bir dasta sifatida uzoq yillar Buxoroda musiqa shinavandalariga beminnat xizmat qilganlar.

Yana bir mashhur sozandalardan Hofizi Kalon qorining nomini tilga olmasdan iloj yo'q. U asli samarqandlik bo'lib, Buxoroda ijod etgan. Bu haqda Hasanxo'ja Nisoriy quyidagicha ma'lumot beradi: "*Samarqandning mo'tabar sohibi vuquf hofizlaridan va yaxshi qiroatli qoriylaridan. Shayboniixon huzurida to'la ishonchga erishgan kishi ekan*" [Нисорий 1993, 159].

Uning bastalagan kuylaridan: "Amali Kalon", "Naqshi Kalon", "Savti Kalon" singari kuylari juda mashhur bo'lgan. Fikrimizcha, amaldagi "Shashmaqom" turkumidagi "Rost" maqomidagi ikkinchi guruh sho'balaridan "Savti Kalon" muallifi aynan shu bastakor ekanligi shubha qoldirmaydi.

Mir Ahmad Xatib ham mashhur hofizlardan bo'lib, Hofizi Kalonning e'tiborli shogirdlaridandir. Darvish Ali Changiy aytishiga qaraganda, butun umrini bu sharofatli ilmga bag'ishlagan, ahli amal oldida e'tibor topgan, san'atshunoslikka oid ko'pgina asarlar ijod qilgan zot edi. Mir Ahmad Xatib – Peshravi "Hisor" nomli kuy tasnif qilgan bo'lib, u yetti qismdan iborat bo'lgan.

Ruhiy Tanburiy ham Buxoro, Samarqand va Hirotda shuhrat qozongan taniqli bastakor va musiqashunos bo'lgan. Mashhur mutasavvuf olim Abul Vafo Xorazmiy unga quyidagicha maktub yozgan:

*Yoron, ki ba bazmi ishq damsozi tu and,  
Faryod kunon zi ishvayu nozi tu and.  
Bar xezu biyo jonibi yoron ki xama,  
Dida ba rahu go'sh ba ovozi tu and.*

Mazmuni:

*Do'stlar, ishq bazmida senga sherik,*

*Sening nozu ishvangdan faryod qilurlar.  
Tur o'ringdan, do'stlar tomon yurgin, chunki ular,  
Yo'lga ko'z tikib, sening ovozingga tashna erurlar.*

Qosim Qonuniy ham mashhur xonanda sifatida bir qancha kuylar bastalagan, irfoniy-tasavvufiy g'azallar bilan odamlarning dilini xushnud qilgan taniqli ijodkorlardan biri edi.

Do'stmuhammad Udiy ham "Savti Diljo", "Amali Udiy", "Qavli Murassa", "Rehtai Navo", "Kori Husayniy" kabi kuylar ijod qilgan sozandadir.

Najmiddin Kavkabiylar Buxoriy esa Hirot va Buxoro musiqa sarchashmalaridan to'la bahramand bo'lgan va o'z davrining eng ko'zga ko'ringan musiqashunosi sifatida tarixda qoldi.

Najmiddin Kavkabiylar haqida boshqalardan ko'ra batafsilroq ma'lumot bergan ham Darvish Ali Changiy bo'ladi. U o'zining "Risolai musiqiy" asarida nufuzli musiqashunoslar qatorida Najmiddin Kavkabiylar Buxoriyga alohida o'rin ajratgan [Чангий, 70-73].

Darvish Ali Changiy Kavkabiylar haqidagi yodnomalarini davom ettirib, "va nisbati talammuz ba janobi rif'atmaobi Abdurahmon Jomiy menamud" deb, Najmiddin Kavkabiylar Abdurahmon Jomiyning shogirdi ekanligini aytib o'tadi [Чангий, 71]. Bu fikrni yuqorida keltirilgan Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asaridagi eslatmasi ham tasdiqlaydi.

Zikr etilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, Alisher Navoiylar Kavkabiylar uncha eslay olmagan bo'lsa-da, Abdurahmon Jomiy qatoriga qo'yishi Kavkabiylar Jomiyning davrasida, ya'ni, uning shogirdlari safida ko'rganligini anglatadi. Ammo, Najmiddin Kavkabiylarining asarlarini nashrga tayyorlagan tojikistonlik olim Asqarali Rajabov bu fikrga e'tiroz bildiradilar: "Kavkabiylarining risolalarida Jomiyning nomi tilga olinmagani, Kavkabiylar asarlari tarkib va tuzilish jihatidan Jomiy asarlariga mutlaqo o'xshamasligi bilan tasdiqlanadi" [Кавкабий 1985, 33]. Biroq fikrimizcha, Darvish Alining guvohligi, Alisher Navoiyning yodnomasi, olim Asqarali Rajabovning mulohazalari Kavkabiylar hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarning ishonarli ekanligini isbotlab turibdi.

### **Kavkabiylar ijodining zamondoshlariga ta'siri**

Najmiddin Kavkabiylarining bastalagan kuylari orasida "Husayniy" maqomidagi *zarbul fath* usulida ishlangan payg'ambarimiz (s.a.v.) na'tlari alohida o'rin tutadi. Chunki bu o'sha davrda juda shuhrat qozongan va manbalarda alohida ta'kidlangan. Shunga o'xshash "Iroq" maqomidagi "Chahor zarb" ham alohida tahsinga loyiq. Allomani eng mashhur qilgan, bastalagan asari, shubhasiz, *Kulliyot*dir. U "Rost" maqomida bastalangan. Ushbu kulliyot zamonlar sahifasiga ko'p vaqtlar bezak bo'lib qoldi. Shuni yana bir bor

ta'kidlash joizki, nazariy masalalarda u o'z ustozlari Urmaviy va Marog'iyalar davomchisidek advor ta'limotini muxtasar yoritib beradi.

Najmiddin Kavkabiyning mazkur "Kulliyot"idan ta'sirlangan va ilhomlangan Movarounnahr va Xuroson olimlari, hindistonlik Xoja Yusuf Burhon, Xoja Yusuf Andijoniy, Nosiridin Qavvol, Tursunbo-bo Qamchin, Oxun Gurbai Samarqandiy, Mavlono Abulhayo, Mavlono Qosim Kohiy, Yusuf Mavlud Dutoriy, Ali Akbar Qonuniy, Xoja Jafar Qonuniy, Mirzo Hoshim Sozanda, Hofiz Boboi Qonuniy, Hofiz Turdi Qonuniy, Sulton Muhammad Tanburiy, Husayn Udiy, Ahmad Qobuziy, Rizoi Tantan, Xusravi Jaybo, Pahlavon Abusayid kabi sozanda va bastakorlar o'zlarining kulliyotlarini ijod qilganlar. Jumladan, Shoh Muhammad Doldo'z "Kuchak" maqomida, Hofiz Turdi Qonuniy esa "Rost" maqomida kulliyot bastalaganlar [Ражабов 1988, 27-28]. Hofiz Bobo Qonuniyning o'zi ikki kulliyot tasnif qilgan [Кавкабий 1985, 23].

Najmiddin Kavkabiyy mohir sozanda va xonanda hamda yetuk musiqashunos sifatida o'nlab shogirdlar yetishtirgan. Darvish Ali Changiy uning shogirdlaridan to'rttasi juda mashhur, deya nomlarini keltiradi: Mavlono Hasan Kavkabiyy, Mavlono Hoja Muhammad, Mavlono Rizoi Samarqandiy, Mavlono Boqiy Jarroh [Чангий, 71].

Mavlono Hasan Kavkabiyy o'z davrining mutrib musiqashunos va shoiri sifatida tanilgan. U Buxoroda tug'ilib o'sgan. Biroz muddat Samarqandda o'qigan. Musiqadagi ustozini Najmiddin Kavkabiyy edi. Uning ma'lohatli ovozi, musiqa ilmini chuqur tahlil qilishi, she'rdagi mahorati uni Movarounnahr va Xurosonda "Kavkabi soniy" (ikkinchi Kavkabiyy) sifatida tanitdi. Hasan Kavkabiyy devon tuzgan bo'lib, u to'la ravishda bizgacha yetib kelmagan. Biroq uning parokanda she'rlari XVI – XVII asrlardagi ko'plab she'riy bayozlarda o'z aksini topgan [Кавкабий 1985, 25].

Hasan Kavkabiyy bastakor sifatida "Rost" va "Husayniy" maqomida ikkita kulliyot, "Kuchak" maqomida esa *savt, amal, naqsh, rehta, saj', na'tlar* bastalagan. Musiqaning nazariy jihatlariga bag'ishlangan "Risolai musiqiy" asarini ham yaratgan. Mazkur asar kirish va besh fasldan iborat [Rajabov 1988, 117-125].

### **"Risolai musiqiy" fasllari**

*Risolaning birinchi faslida* musiqa ilmining kelib chiqishi, musiqa so'zining ma'nosiga to'xtalib o'tadi. Shu yerda u ustozini Mavlono Najmiddin Kavkabiyning ushbu ruboiysini keltirgan.

*On nag'maki, ruh qolibi inson buvad,  
Hamroh ba-u savti xushi pinhon buvad.  
Go'yandki, savt bud bo-jon hamroh,  
Hamroh ba-jon mago'ki u xud jon buvad.*



(Mazmuni: *Inson jasadiga ruh puflanganda u bilan birga hamroh bo'lib, yaxshi sas pinhon bo'lgan edi. Sas jon bilan hamroh edi, deydilar. Jon bilan hamroh edi, deb aytma, balki uning o'zi jon bo'lgan edi*).

*Risolaning ikkinchi faslida* musiqaning tarkibiy jihatlari haqida gapirar ekan, u haqda shunday deydi: “Bu bir ilmki, unda nag'ma (kuy, qo'shiq)lar ahvoli bir-birlariga nisbatan muloyimat (yoqimli, munosib tovushlar) va munofiratdir (nomunosiblik, yoqimsiz tovushlar). Nag'malar orasidagi vaqt holatlari, ularning bir-birlariga nisbatan uzun va qisqaligi tushunilishi jihatidan ikki qism bo'ladi. Lahn (kuy, ohang)larni tanish – ta'lif (kuy yaratish) ilmi deb ataladi. Vaqtlarni tanish esa iyqo (ritm, ritm o'lchovi) ilmi deb nom olgan [Ражабов 1997, 83, 72, 76, 93].

Bu ilmning mavzusi lahnlar bo'lib, muloyimat va munofirat jihatidan uning zotiy holatlaridan bahs yuritishdir. Chunonchi, bu yuqorida zikr etildi. Luqmonning shogirdi Faysug'oris hakim ushbu ilmni o'ylab chiqargan, deydilar. U ushbu ilmdan ogoh bo'lganining sababi shuki, kechasi tushida bir kimsa uning oldiga kelganini ko'r-di. Unga: “Ertalab temirchilar bozoridan yurib o'tgin, shunda hikmat sirlaridan bir sir senga ochiladi”, deyildi. Ertalab turib, sahardanoq o'sha aytilgan tarafga bordi. O'sha bozorda sirni ochish andishasida turdi. Shunda jismga oz-ozdan urilayotgan saslarni eshitdi, ular bir-birlariga shunday munosib ediki, undan qandaydir lazzat tuydi. U yerdan bir burchakka chiqib, og'ziga bir tola sochni oldi va tirnog'i bilan uni qimirlatdi. Undan ovoz chiqdi. Ammo bu tola zaif edi, uni ipakka alishtirdi. Bir asbob yaratib unga ipak bog'lashni o'ylab qo'ydi.

Bir kuni tog' etagidan o'tib ketayotgan edi, o'lgan toshbaqa yotgan ekan. Chirib, faqat kosa suyagi qolgan. Shu vaqt kuchli shamol turib qoldi. Undan ovoz chiqar edi. Uni ko'tarib oldi va (shundan keyinchalik) barbatni yasadi. Unga bir dasta bog'lab, uni takomillashtirishga, to'ldirishga harakat qildi. Barbat shu xilda kamolga yetdi. Alloh taolo bilguvchiroq!

*Risolaning uchinchi faslida* nag'ma ta'rifi haqida so'z boradi.

Bilginki, nag'ma bir had (chegara)da turib qolgan xush ovozdur. Bir hiddat (yengil) va saqil (og'ir)dan uning go'zal vaqtini topish mumkin.

Birinchi qayd “xush keluvchi” lafzi cho'p yoki toshning yerga urilganda chiqadigan sado jihatidan aytilgan. Garchi o'sha ovoz bir had (chegara)da turib qolsa ham. Biroq, tabiiy mayldan yiroq bo'lgani bois uni nag'ma deb atamaydilar. Agar aytsalarki, bu ta'rif badovoz, notabiiy nag'malar, yoqimsiz sozlar sadosidan xorij-ku, axir ularni ham nag'ma deb ataydilar. Aytamizki, bunga qo'shilmaymiz. Chunki ularning xush bo'lmasligi tabiiy aytuvchiga nisbatan yoki tabiiy ijro qiluvchiga nisbatandir. Qo'shilgan taqdirimizda, yoqimlilik tabiiy bo'lmaydi. Bu esa nag'maning zotini maqsad qilingan holatdagi ta'ri-

fidir, nag'maning mutlaq ta'rifi emas.

Ikkinchi qayd "bitta" lafziga kelsak, bo'd, jins va jam'larning har biridan tarkib topganini chiqarish ko'zda tutilgan. Biroq, ulardan har qaysilari bitta hadda turib qoluvchi emas, balki har xil hududda turadilar. Demak, ularni ham nag'ma demaydilar.

Uchinchi qayd go'zallikni idrok qilish bo'lib, daf va kaftning eshitilgan sasi jihatidan qilinmoqda. Ammo turish bo'lmasa chiroylilikning o'zi bilan uning zamonini idrok qilish qiyin. Demak, undayni ham nag'ma demaydilar. Shunday qilib, nag'maning haqiqati ma'lum bo'ldi. Bilginki, u ikki qism bo'ladi: qavliiy va fe'liy. Qavliysi xonanda va go'yandaning ovozi. Fe'liysi esa chang, rubob va shunga o'xshashlar sadosi.

*To'rtinchi faslida* bo'd (ikki tovush oralig'i, interval), jins (tur, nav) va jam' (yig'indi, to'plam)ning ta'rifi haqidadir [Ражабов 1997, 30, 60, 62].

"Sharafiya"ning sohibi Safiuddin Abdulmo'min, joyi jannatda bo'lsin, aytganki, bo'd ikki nag'maning hiddat va saqlidagi majmu'i-dir. "Nafoyis al-funun"ning sohibi Muhammad ibn Mahmud al-Omuli, Alloh uni rahmat qilsin, aytganki, hiddat va saql sababli har xil bo'lgan ikki nag'ma orasining qo'shiluvchi (ta'lifi)ni bo'd deydilar. Ammo bo'ddan murod ikki nag'maning har xilligidir, chunki ikki nag'maning orasi muloyimat yoki munofiratdir. Ya'ni tab' ikki nag'mani eshitishdan lazzat oladi, sababi o'sha ikki nag'maning bir-biriga munosib bo'lgani uchun. Yoki tab' noxush bo'ladi, sababi har biri ikkinchisiga nisbatan boshqacha bo'lgani uchun.

*Beshinchi fasl* asliy pardalar bayoni haqida.

Bilginki, asl maqomlar o'n ikkitadir: "Ushshoq", "Navo", "Busalik", "Rost", "Iroq", "Isfaxon", "Zerafkan"ni yana "Kuchak" ham deydilar; "Buzruk", "Zangula"ni yana "Nahovan" ham deydilar; "Rahoviy"ni yana "Rahodiy" ham deydilar; "Husayniy", "Hijoz".

Aytadilarki, pardalarning majmuini Faysug'oris (eramizdan oldingi VI asrda yashagan yunon faylasufi) chiqargan bo'lib, aslida yettita bo'lgan. Birinchi "Navo", ikkinchi "Busalik". Pardalarning bu nom bilan shuhrat qozonishiga sabab shu ediki, uning Busalik nomli g'ulomi (xizmatkori) bo'lgan. Unga atab turkiyda doimo qo'shiq aytar edi. Bu parda uning nomi bilan mashhur bo'ldi. Uchinchi "Rost". Uni shu jihatdan "Rost" deydilarki, ko'pgina ovozlari ushbu pardada rost (to'g'ri) keladi. Shu jihatdan uni "Umm ul-advor" (doiralari onasi) deydilar. To'rtinchi "Iroq". Bu pardaga ushbu nom shu jihatdan bo'ldiki, Iroqda bir podshoh bo'lgan. Bu parda unga judayam ma'qul kelgan. Bu parda uning nomi bilan shuhrat qozongan. Beshinchi "Ushshoq". Oltinchi "Zerafkan". Yettinchi "Rahoviy". Rahoviy Rumning qasaba (qishloq)laridan bir qasabadir. U yerda bir kechasi Faysug'orisga bir surat yetkazilgan. Kechasi bilan uning mushohadasida bedor bo'ldi va bu pardani tartib berdi. Tong otganida pardani to'la tugatgan edi.



Shuning uchun unga "Rahoviy" deb nom qo'ydilar.

Ba'zi maqomlarni shu xilda nomlash biz eshitganimizga ko'ra zikr etildi. Zikr qilinganlarni boshqacha nomlash ham mumkin bo'ladi (Masalan, Yunus Rajabiy "Ushshog" ini xalq orasida "Qaro ko'zim" deb ataydilar. yoki Hoji Abdulaziz bastalagan Samarqand "Ushshog" ining xalq orasida "In jost" deyilishidir).

*Risolaning oltinchi fasli ovozlari va sho'balari nisbati haqidadir.*

Bilginki, asl o'n ikki maqom yuzaga chiqqandan keyin ushbu san'atning ahli bir qancha pardalarni mazkur asl maqomlardan chiqardilar. Ulardan shohlagan bir qismini ovoza (kuy tuzilmasi, ohang) deb, yana bir toifasini sho'ba (bo'lak, qism) deb atashgan.

Ovoza oltitadir. "Garduniya", "Shahnoz", "Gavasht", "Navro'z", "Salmak" va "Moya". "Garduniya" ni "Rost" ning tezi (o'tkir) ligidan "Ushshog" ning narmiy (tovushqatorning pastki qismi) ligidan olganlar. "Shahnoz" ni esa "Rahoviy" teziy (tovushqatorning yuqori qismi) idan, "Buzruk" ning narmiyidan olganlar. "Gavasht" ni esa "Navo" ning teziydan va "Hijoz" ning narmiyligidan, "Navro'z" ni esa "Busalik" ning teziydan, "Husayniy" ning narmiyidan, "Salmak" ni esa "Zangula" ning teziydan, "Isfahon" ning narmiyidan, "Moya" ni esa "Iroq" ning teziydan va "Zerafkan" ning narmiyidan olganlar.

*Yettinchi fasli murakkabotlar bayoni haqidadir.*

Bilginki, boshqa bir toifa (olim)lar shoxlaganlarni murakkabot (murakkab birikmalar) deb ataydilar. Ba'zi bir murakkablar ikki asldan (Masalan, "Dugoh" maqomidagi "Husayniy Dugoh". Bunda "Husayniy" ham "Dugoh" ham alohida maqomdir), ba'zilari esa ikki sho'badan (Masalan, "Sabo Savti". Bunda har ikkalasi ham sho'bacha vazifasida keladi), boshqalari esa bir asl va bir sho'badan hosil qilinadi (Masalan, "Navo" maqomidagi "Navo Savti", bunda "Navo" bu asl, "Savti" esa sho'bacha vazifasidadir). Ularning hammasini ham muloyimatlikda ekanini aytish kerak. Ular yigirma to'rttadir. Ismlari esa mansublarini sanaganda ma'lum bo'ladi. Jumladan, "Zerkashi Xovaron" shuki, "Husayniy" dan bunyod bo'lib, "Rahoviy" da qaror topgan. "Hijoz" Muxolif" shuki, "Hijoz" dan bunyod qilinib, "Iroq" da qaror qildirganlar. "Garduniyai Busalik" shuki, "Busalik" da bunyod qilinib, "Rost" da qaror qildirganlar. "Bastai Isfahon" shuki, "Isfon" da bunyod qilinib, "Segoh" da qaror qildiradilar. "Isfahon" shuki, "Isfahon" da bunyod qilinib, "Ajam" da qaror beradilar.

*Risolaning sakkizinchi fasli naqra ta'rifi haqidadir.*

Bilgan edikki, nag'ma sas ekan. Tilda uning cho'zimi bo'lgani uchun, ilojisiz uning boshlanishi va tugashi bo'ladi.

Bilginki, naqra (zarb, tiqillatish, kesilish) bu fanning istilohida boshlanishdan iborat. Nag'ma izma-iz keladigan bo'lsa jam' martabasiga yetadi. Naqralar hosil bo'lganda, bu boshlanishlar o'rnida ikki harf eshitiladi va uni "naqra harflari" deydilar. Ular sakkiztadir: "te (⦿), re (⊙), dol (⊕), lom (⇒), nun (↗), he (□), alif

(※), yoy (‡)”. Avvalgi beshta harfdan tarkib topganlarini “naqarot” deyдилar, oxirgi uchta harfni esa “naqaroti zoyid” (ziyoda naqralar) va “asl naqralarni to’ldiruvchi” deb ataganlar.

*Risolaning to’qqizinchi fasli iyqo’ ta’rifi haqidadir.*

“Sharafiya” sohibi aytadilarki, iyqo’ (arab. ritm) – naqralar jamlanmasi bo’lib, miqdorlari chegaralangan zamonlarning (vaqt) oralig’idagi mavjudlikdir. Bu ta’rifda bor narsadan bilinadigan narsa shuki, iyqo’ haqiqatdan ham shaxsning fe’lidir, naqralar esa maf’ul (bajarilgan). Fe’lni maf’ul bilan ado qilinsa, majozsiz durust bo’lmaydi, uni hududlarda ishlatish joiz emas. Hakim Abu Nasr Forobiy aytadilarki, iyqo’ nag’malardagi ko’chib yurishlar (intiqol) dir va miqdorlari chegaralangan zamonlar ham unda mavjud. Advor az-zurubga iyqo’ni taqsimlash naqralar orasidagi zamonlarni barobarligi va ortiqchaligiga qarab taqsimlash bilan bo’lgay. Men kaminaning ustodining ustodi, o’zi Xoja Abdulqodir (Alloh rahmat qilsin)ning shogirdi bo’lmish Xoja Yusuf Burhon tilidan vosita ila eshitgan so’z borki, u kishi aytgan ekanlar: bu ado qilishlarning har biri, majoziydir. Haqiqatda esa iyqo’ nag’malar orasida o’tadigan vaqtlardan muayyan miqdorning yuzaga kelishidir.

*O’ninchi fasl advor az-zurublar haqidadir.*

Bilginki, bu san’at arboblari nazdida zarb doiralari arablar-da oltita bo’ladi. Ajamlar oldida esa o’n beshtadir. Safiuddin Abdulmo’min nazdida esa o’n bitta bilan chegaralangan. Kamina shunday to’plamlardan keng iste’molda bo’lganman, nihoyatda shuhrat qozongan, ustodlarning u borada tasniflari bo’lgan bir qancha zarblarni doira suratida yozib chiqdim. Ularning adadi o’n ikkitadir. Harakatli harf alomati “mim”, sukunli harfnikiga “alif” qo’yildi. Ular mana shulardir.

*Hazaj doirasi:* 3 zarb, 8 naqra, 2 sababi hafif, 1 fosilai sug’ro  
TaN TaNaNaN TaN

Ushbu usulni tushuntirib o’tamiz: 3 zarb –  $\theta + \theta$  ( $\epsilon\epsilon\theta$ ) +  $\theta$ , 8 naqra (TN TNNN TN), 2 sababi hafif (TaN Tan), 1 fosilai sug’ro (TaNaNaN)

*Ufar doirasi:* 2 zarb, 6 naqra, 1 sababi hafif, 1 fosilai sug’ro.  
TaN TaNaNaN.

Ushbu usulni tushuntirib o’tamiz: 2 zarb  $\theta + \theta$  ( $\epsilon\epsilon\theta$ ), 6 naqra (TN TNNN), 1 sababi hafif (TaN), 1 fosilai sug’ro (TaNaNaN).

*Duyak doirasi:* 2 zarb, 8 naqra, 2 fosilai sug’ro.  
TaNaNaN TaNaNaN.

Ushbu usulni tushuntirib o’tamiz: 2 zarb  $\theta$  ( $\epsilon\epsilon\theta$ ) +  $\theta$  ( $ee\theta$ ), 8 naqra (TNNN TNNN), 2 fosilai sug’ro (TaNaNaN + TaNaNaN).

*Ramal doirasi:* 3 zarb, 8 naqra, 2 sababi saqil, 1 fosilai sug’ro.  
TaNa TaNaNaN TaNa.

*O’n birinchi fasl* bir-birlaridan ajralib turish jihatidan sinflarga tasnif qilib taqsimlash haqida.

Bilgin, lahn (ohang)lar uch navga bo'linadi: Jirmiy, Basitiy, Xattiy.

Jirmiy shuki, nag'malar, iyqo' va baytlar birga jam' bo'ladi.

Bunga misol qilib "Shashmaqom"dagi "Sarahbor", "Talqin", "Nasr"larni kiritishimiz mumkin.

Basitiy, shuki, bu uchovidan faqat ikkitasi jam' bo'ladi:

1) Nag'ma va iyqo'. Bu "Shashmaqom"dagi "Mushkilot" (cholg'u) qismiga oid musiqa asarlari (Tasnif, Tarje', Gardun, Muxammas, Saqil).

2) Iyqo' va baytlar. Bunga biror-bir g'azalni aruz vaznida o'qish yoki Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga patnisaki ashulalar kiradi.

Oxirgi *o'n ikkinchi fasl* usul jihatidan bir-biridan ajralib turadigan qismlar haqida.

Bilginki, jirmiy lahlardan har birida tasnif saqil, xafif va nimsaqil deb aytiladigan avsat doirasida yuzaga kelib, uning baytlari arabiy bo'lsa, uni qavl deyilar.

Xoh unga kirish baytlardan bo'lsin, xoh naqradan. Biroq, agar u naqradan bo'lsa, uni qavli mustahal (ashulalarning cholg'u muqaddimasi) deyilar. Bu tasnifda shart shuki, uning boshdan-oyog'i ikki sarxona va bozgo'y bo'ladi, garchi ba'zi ustodlar unga miyonxona bastalagan bo'lsalar ham. Agar uning baytlari miyonxona bo'lish sharti bilan forsiy bo'lsa, o'sha tasnifni bu istilohda g'azal (arab. hissiy, nozik) deb ataydilar. Bu shartda (miyonxonasi bo'lish shartida) ba'zilar ixtilofga borishgan.

## **Xulosa**

Kavkabiyning o'zi yaratgan "Kulliyot" navbasidagi mulohazalar undan keyin yuzaga kelgan "Shashmaqom" tamoyillarini tushinishda alohida mazmun kasb etadi. Zero, "Kulliyot" umumiy tuzilishi "Shashmaqom"ga o'xshaydigan va Buxoroda yaratilgan musiqa majmuasidir. Bu haqda Kavkabi quyidagilarni ta'kidlaydi: "Bu faqir ba'zi ustozlar mulozamatida bo'lgan chog'larimda mazkur chegaralari belgilangan taqsimni ularga aytib berdim. Pisand qildilar va istehsonlar bildirdilar. Aytdilarkim, sen o'zing aytib bergan narsalarni boshqalardan eshitmadik. Ular sening ixtiroingdur".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Najmiddin Kavkabi davri Hirot va Buxorodagi madaniy hayot gullab-yashnagan paytga to'g'ri keldi. Kavkabi bevosita Abdurahmon Jomiy bosh bo'lgan Hirot ilmiy doiralari safida turib, ma'rifiy sarchashmalardan bahramand bo'ldi. Uning davrida adabiyot rivojlangan va shuning natijasida nafis san'atlarga ham e'tibor kuchaygan edi. Kamoliddin Behzod singari naqqoshlar bilan birga yuzga yaqin musiqadonlar, iqtidorli xonanda va sozandalar yashab ijod etdilar. Ustod Sayyid Ahmad G'ijjak, Ustod Shohquli G'ijjak, Ustod Qulmuhammad Udiy, Ustod Shayx Foniylar

nafaqat Xurosonda, balki butun islom dunyosida nom chiqargan yetuk musiqashunos allomalar ham bo'lgan. Bu esa, o'z navbatida Fitrat ta'riflagan "Oltun davr"ning musiqa borasidagi ishonchli dalillaridir. Ana shunday ilmiy muhitda Najmiddin Kavkabiylar kamolotga yetdi va o'zining o'lmas ijodiy merosini avlodlarga qoldirdi.

### Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 1966. Асарлар. XV томлик. *Мажолисун нафoис*. XII том. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Джумаев, Александр. 2016. *Наджм ад-дин Кавкаби Бухари: поэт, музыкант, ученый XVI-XVII вв. Жизнь и творчество* (исследование и переводы). Ташкент: Baktria press.
- Фитрат, Абдурауф. 1993. *Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи*. Тошкент.
- Ибрагимов, О. 2006. *Фергано-Ташкентские макомы*. Ташкент.
- Jung, Angelika (Hg). 2010. *Der Shashmaqom aus Bukhara uberliefert von den alten Meistern notiert von Ari Babakhanov*. Berlin.
- Нажмиддин Кавкабий. 1985. *Рисолаи мусиқий ва Рисола дар баёни Дувоздаҳмақом*. Таҳия, таҳқиқ ва тавзиҳот ба қалами Асқарали Ражабов. Душанбе.
- Нажмиддин Кавкабий. *Рисолаи мусиқий*. ЎЗР ФА ШИ. Қўлёзма. 636-72а б. Инв. № 468/4.
- Матёкубов, О., Болтаев, Р., Аминов, Х. 2009. *Хоразм Танбур чизиғи*. Тошкент.
- Матёкубов, О. 2004. *Мақомот*. Тошкент.
- Матякубов, О. 2005. "Шашмақом мақомот сатҳида". Китобда *Шашмақом сабоқлари*, 18-22. Тошкент.
- Матякубов, О. 2014. *Бухоро Шашмақомига яна бир назар*. Тошкент.
- Матякубов, О. 2015. *Узбекская классическая музыка*. Том 1. Истоки. Ташкент.
- Матякубов, О. 2015. *Узбекская классическая музыка*. Том 2. Теоретические основы. Ташкент.
- Matyakubov, O. 2016. "The Musical Treasure-Trove of Uzbekistan: The Phenomenon of Uzbek classical Music". *Anthropology & Archeology of Eurasia* 55 (1): 60-105. Taylor & Francis inc. USA.
- Ҳасанхўжа Нисорий. 1993. *Музаққир аҳбоб*. Исмоил Бекжон таржимаси. Тошкент.
- Тўраев, Ф. 2008. *Бухоро муғаннийлари*. Тошкент: Фан.
- Дарвиш Али Чангий. *Рисолаи мусиқий*. ЎЗР ФА ШИ. Қўлёзма. 16-44а б. Инв. № 468.

**Bakhtiyor Ashurov**

(Tashkent, Uzbekistan)

navouzbek@mail.ru

## Scientific Heritage of Najmiddin Kavkabi

### Abstract

Darvish Ali Changi mentions a lot about Mavlano Najmiddin Kavkabi Bukhari whose "bright and shining qualities are known as the sun shining all over the world. Various treatises were published on various disciplines. In particular, his compositions and musical works provoke enthusiasts and seem to make their hearts the sweetest. The master Mavlano wrote many works, including kawl, amal, kor, rekhta, saj, zarbul fath, chahorsarb, savt and naksh. As Abdurauf Fitrat points out: "Kavkabi is just as significant for uzbek era as Kxodja Abdulkadir was for Temurid's era".

**Key words:** music, science, culture, science, scientist, art, melody, musicologist, instrument.

**About the author:** *Bakhtiyor Sh. Ashurov* – self-sufficient finder (PhD), Head of the Department of Scientific and Pedagogical Staff Training, Member of the Uzbekistan Composers and Composers Association, State Conservatory of Uzbekistan.

**For citation:** Ashurov, B. Sh. 2019. "Scientific Heritage of Najmiddin Kavkabi". *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 97–110.

### References

- Alisher Navoiy. Alisher. 1966. *Asarlar*. XV tomlik. *Mazholisun nafois*. XII tom. Toshkent: Adabijot va san'at.
- Dzhumaev, Aleksandr. 2016. *Nadzhm ad-din Kavkabi Buhari: pojet, muzykant, uchenyj XVI-XVII vv. Zhizn'i tvorchestvo (issledovanie i perevody)*. Tashkent: Baktria press.
- Fitrat, Abdurauf. 1993. *Uzbek klassik musiqasi va uning tarihi*. Toshkent.
- Ibragimov, O. 2006. *Fergano-Tashkentskie makomy*. Tashkent.
- Jung, Angelika (Hg). 2010. *Der Shashmaqom aus Bukhara uberliefert von den alten Meistern notiert von Ari Babakhanov*. Berlin.
- Nazhmiddin Kavkabij. 1985. *Risolai musiqij va Risola dar bajoni Duvozdahmaqom*. Tahija, tahqiq va tavzihot ba qalami Asqarali Razhabov. Dushanbe.
- Nazhmiddin Kavkabij. *Risolai musiqij*. UzR FA ShI. Quljozma. 63b-72a b. Inv. № 468/4.
- Matjoqubov, O., Boltaev, R., Aminov, H. 2009. *Horazm Tanbur chiziri*. Toshkent.

- Matjoqubov, O. 2004. *Maqomot*. Toshkent.
- Matjakubov, O. 2005. "Shashmaqom maqomot sathida". *Shashmaqom saboqlari*. 18-22. Toshkent.
- Matjakubov, O. 2014. *Buhoro Shashmaqomiga jana bir nazar*. Toshkent.
- Matjakubov, O. 2015. *Uzbekskaja klassicheskaja muzyka*. Tom 1. Istoki. Tashkent.
- Matjakubov, O. 2015. *Uzbekskaja klassicheskaja muzyka*. Tom 2. Teoreticheskie osnovy. Tashkent.
- Matyakubov, O. 2016. "The Musical Treasure-Trove of Uzbekistan: The Phenomenon of Uzbek classical Music". *Anthropology & Archeology of Eurasia* 55 (1): 60-105. Taylor & Francis inc. USA.
- Hasanhuzha Nisoriy. 1993. *Muzakkiri ahhob*. Ismoil Bekzhon tarzhimasi. Toshkent.
- Turaev, F. 2008. *Buhoro mugannijlari*. Toshkent: Fan.
- Darvish Ali Changij. *Risolai musiqij*. UzR FA ShI. Quljozma. 1b-44a b. Inv. № 468.